

Тенденции развития физики конденсированных сред

Секция «Инновационные методы преподавания современной физики»

**ATOM FIZIKASI FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI
BAJARISHDA INTERNET RESURSLARDAN FOYDALANISH**
D.A.Yusupova, S.Z.Sirojiddinova
Farg'onan davlat universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda pedagogik dasturiy vositalar va virtual simulyatorlarning talabalar intellektual salohiyatini rivojlantrishdagi ahamiyati, mavjud imkoniyatlari va "Virtual Amrita laboratories Universalizing Education" elektron platformasi haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: в данной статье представлена информация о значении педагогических программных средств и виртуальных тренажеров в развитии интеллектуального потенциала учащихся при преподавании физики, имеющихся возможностях и электронной платформе «Виртуальные лаборатории Амрита, универсализирующие образование».

Annotation: this article provides information on the importance of pedagogical software and virtual simulators in the development of students' intellectual potential when teaching physics, available opportunities and the electronic platform "Amrita Virtual Laboratories, universalizing education."

Kalit so'zlar: vizual simulyator, vizual model, fizik eksperiment, virtual laboratoriya, simulyatsiya, atom fizikasi, modellashtirish.

Ключевые слова: визуальный симулятор, визуальная модель, физический эксперимент, виртуальная лаборатория, моделирование, атомная физика, моделирование.

Key words: visual simulator, visual model, physical experiment, virtual laboratory, modeling, atomic physics, modeling.

Ta'lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bilim olishga yo'naltirilgan, ijodiy yondashuvlarni shakllantirish, talabaning bilish qobiliyatlarini rivojlatirishga asoslangan metodologiyani yaratishga va ta'minlashga xizmat qiluvchi jarayonni hayotga tadbiq etishdan iborat bo'ladi.

Har bir mavzu uchun kompyuter modeli asosida maxsus yaratilgan vizual simulyatorlar fizik jarayonning ideal vizual modeli bo'lib, o'qituvchining professional mahoratiqa bog'liq holda talabaga fizik qonunning to'liq mohiyatini tasavvur qilishga imkon beradi. Fizika fanining rivojlanishi va fizikani o'rganish turli xil fizik modislarining modellarini qurish va o'rganish bilan uzvib bog'liqidir. Shuning uchun, fizik qonunlarini soddallashtirilgan ekvivalent modellarini intellekt tomonidan o'rGANISHDA ilmiy asoslangan yondashuvlarni yaratish dolzarb muammollardan biridir.

Fizikaning kompyuter modelida dasturlash texnologiyalari asoslanib, ko'plab faktorlarning qo'shilishi fizik jarayonning tabiiy modelini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bu fizik jarayonning kompyuter modeli o'tkazilayotgan fizik eksperimentning tabiiyilagini ta'minlaydi.

Vizuallashtirish – fizik hodisa va qonunlarini chiqar anglash va tushunishiga imkon beruvchi ta'lindagi asosiy usullardan biridir. Tushunish qiyin bo'lgan dinamik ob'yeqt va modislarini, statik tasvirlarga qarab o'zlashtirishdan ko'ra, vizuallashtirish yordamida o'rganish yaxshi samara beradi. Virtual fizik eksperimentalr kompyuter texnologiyalari yordamida fizik modellarini amalga oshirish tufayli ilmiy izlanishlarda ham, o'quv jarayonida ham nisbatan yangi yo'nalishdir. Real laboratoriya sharoti haamma tajribalarni ham o'tkazish imkonini bermaydi. Shuning uchun, ta'lim jarayoniga

Тенденции развития физики конденсированных сред

Секция «Инновационные методы преподавания современной физики»

o'qitishning an'anavy ma'ruza, amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari ko'rinishlari bilan bir qatorda interfaol modellashtirish usullarini kiritish zarur.

Fizika fanini pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishda talabalarning intellektual salohiyatlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar eng muhim dolzarb muammolar bo'lib, fizik hodisaniing kompyuter modellarini orgali talabalarning tafakkurlari rivojlanirildi.

Hozirgi paytda fizik hodisalarning modellarini, virtual fizik tajribalarni kompyuter texnologiyalari yordamida bajarish Oliy ta'lim talabalarning intellektual salohiyatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.


Ko'plab fizik hodisalarning kompyuter modellarini fizik hodisani tushuntirish uchun juda oson bo'lib, talabalarning bilish qobiliyatlarini, tasavvurlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, moddiy nuqta, ideal gaz, garmonik ostsiyator, Rezerford tajribasi modeli, zaryadli zarrachalar shular jumlasidadir.

Virtual laboratoriylar foydalanuvchilarga kompyuterda simulyatsiya qilingan muhitda fizik laboratoriya tajribalarini istalgan vaqtida va istalgan joyda o'tkazish imkonini beruvchi ommaviy axborot vositalariga boy onlaysin o'quv muhitidir. Shu bilan bir qatorda virtual eksperimental modellar ta'lim muassasasida uskunalar yetishmasligini o'rnnini qoplaydi.

Olyi ta'lim atom fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda namoyish qilish uchun hamda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zaruriy asbob va uskunalar yetarli darajada mavjud emas. Shuning uchun, fizik qodisalarini talabalar tomonidan chuqur o'rganishlarida mavjud virtual simulyatorlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yugoridagi keltirilgan omillarni e'tibora olgan holda, biz ta'lim jarayonida atom fizikasidan laboratoriya darslarini tashkil etishda "Virtual Amrita Laboratories Universalizing Education"(VALUE) elektron platformasidan foydalanimiz. Ushbu elektron platforma talabalarga veb-brauzerlardan foydalanish orqali fizika, kimyo, bioteknologiya, masinasozlik va komputer injineeringi fanlari bo'yicha matematik jihatdan aniq simulyatsiya qilingan, animatsiyon va masavofiy tajribalarga bepul va universal kirishni ta'minlaydi hamda raqamli o'quv vositalari bilan tajribalar negizidagi nazaraya tushunchalarni o'rganishni beradi.

Ushbu platformaga kirish uchun <http://vlab.amrita.edu> havolasidan foydalilanadi. I-a rasmida platfromaning ishechi oyndasi tasviri keltirilgan. Oynadagi



I-rasm (a)

I-rasm (b)

Тенденции развития физики конденсированных сред

Секция «Инновационные методы преподавания современной физики»

“Physical Sciences” “Modern Physics Virtual Lab” bo‘limlarini tanlash orqali biz virtual laboratoriya muhitida atom fizikasi fani o‘quv dasturida mavjud bo‘lgan fotoeffekt qonunlarini tekshirish. Planck doimiymsni aniqlash, elementar elektr zaryadini Milliken tajribasi yordamida aniqlash kabi laboratoriya ishlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lamiz (*1-b rasm*). Simulyatsiya qilangan tajribalarga qo’shimcha ravishda, ushbu virtual o‘quv muhit qo’shimcha bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ular orasida tasvirlangan nazariy eslatmalar, animatsiyalar, modellashtirish, interfaol viktornilar, shuningdek, ish kitoblari va kerak bo‘lganda ko‘p marta ko‘rish mumkin bo‘lgan video ma’ruzalar mavjud. 2-rasmda atom fizikasiga oid ba’zi virtual laboratoriya ishlarning ischiynasini keltirildi. Foydalanuvchilar ushbu oyinlarda zanjirni ulash va o‘lchash ishlarni amalga oshiradilar.



2-rasm. (a). Elementar elektr zaryadi kattaligini Milliken usuli bilan aniqlash



2-rasm. (b). Fotoeffekt qonunlarini o‘rganish laboratoriya ishining virtual oynasi laboratoriyaning virtual oynasi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quv jarayonida ma’lum bir laboratoriya sharoitida u yoki bu sabablarga ko‘ra qiyin yoki imkonisz bo‘lgan tajribalarni ko‘rish, o‘qituvchi va talabafarning vaqtini tejash, talabafarga amaliy tajribalar o’tkazish imkonini beradi hamda oliy ta’limning yangi yondashuvi va ilmiy-uslubiy tadqiqotlarni rivojlantrish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Albatta, virtual laboratoriya haqiqiy fizik laboratoriya o‘rnini bosa olmaydi. Biroq, virtual ishni o’tkazish zarur jihozlar mavjud bo‘lmaganda yagona yo‘ldir.

Adabiyotlar

- Д.А. Юсупова. (2021). Использование цифровых образовательных технологий в преподавании физики Academic research in educational sciences volume 2. cspi conference 3.Toshkent
- D.A. Yusupova, F.N. Nasreddinova. Fizika o‘qitishda noan’anaviy yondashuvlardan foydalanish. «Kimyo, oziq-ovqat hamda kimyoiv texnologiya mahsulotlarini qayta ishlashtagi dolzurb muammolarni yechishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 1-tom. 52-55 b.
- Kamolova, M., & Sirojiddinova, S. (2023, June). ENHANCING SCHOOL PHYSICS INSTRUCTION: EXPLORING INNOVATIVE METHODS WITH COMPUTER TECHNOLOGIES. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 5, pp. 154-156). 15:58